

## AXBOROTLI YONDASHUV ASOSIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI

**Umarov Azizbek Vaxobovich**

**Andijon davlat pedagogika instituti**

**Matematika va informatika kafedrası dotsenti**

**E-mail: [aizibek.umarov.80@list.ru](mailto:aizibek.umarov.80@list.ru)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21308813>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda axborotli yondashuv asosida talabalar mediakompetentligini baholashning mezonlari va indikatorlari tizimi yoritilgan. Mediakompetentlikni baholashning beshta asosiy mezon (axborot-motivatsion, axborot-kognitiv, axborot-operatsional, axborot-aksiologik, axborot-refleksiv), ularga mos indikatorlar, to'rt darajali baholash shkalasi hamda diagnostik usullarning yaxlit tizimi (testlash, anketa, amaliy topshiriqlar, media-tahlil, refleksiv esse, portfolio) taklif etilgan. Baholash jarayonining bosqichlari va natijalarni statistik tahlil qilish usullari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** mediakompetentlik, axborotli yondashuv, baholash mezonlari, indikatorlar, diagnostik usullar, baholash darajalari, portfolio, statistik tahlil.

Pedagogik tadqiqotlarning ilmiy ishonchliligini va ob'ektivligini ta'minlashda baholash mezonlari va indikatorlari tizimi muhim o'rin egallaydi. Mediakompetentlik kabi kompleks pedagogik hodisani baholash maxsus metodologik yondashuvni talab qiladi. Aynan axborotli yondashuv mediakompetentlikning barcha qirralarini majmuy va ob'ektiv baholash imkonini beruvchi samarali metodologik asos sifatida o'zini namoyon qilmoqda.

Axborotli yondashuv (informational approach) - bu pedagogik hodisalarni axborot olish, qayta ishlash, saqlash va uzatish jarayonlari nuqtai nazaridan o'rganuvchi metodologik konsepsiyadir. Bu yondashuv asosida mediakompetentlikni baholashda shaxsning axborot bilan ishlash sifati, axborot oqimida harakatlanish mahorati va axborot mahsulotlarini yaratish qobiliyati markaziy o'rinni egallaydi. Axborotli yondashuv mediakompetentlikning kvantitativ (miqdoriy) va kvalitatif (sifatli) ko'rsatkichlarini birlashtirish imkonini beradi.

Axborotli yondashuv asosida mediakompetentlikni baholash mezonlari ishlab chiqilganda quyidagi metodologik talablarga rioya qilinadi: o'lchanuvchanlik (mezonlar konkret indikatorlar bilan ifodalanadi); ob'ektivlik (sub'ektiv munosabatlardan xoli bo'lish); to'liqlik (barcha komponentlarni qamrab olish); ishonchlilik (turli sharoitlarda barqaror natija); validlik (haqiqiy o'lchovni ta'minlash); ekonomiklik (resurslarni tejkorlik bilan ishlatish).

Tadqiqotlar va ilmiy tahlillar asosida mediakompetentlikni baholashning beshta asosiy mezon va ularga mos indikatorlar tizimi taklif etiladi:

### **1-jadval. Mediakompetentlikni baholash mezonlari va indikatorlari**

| <b>Mezon</b>         | <b>Indikatorlar</b>                                                             | <b>Maks. ball</b> |
|----------------------|---------------------------------------------------------------------------------|-------------------|
| Axborot-motivatsion  | Media-faoliyatga qiziqish; o'rganish ehtiyoji; kasbiy motivatsiya               | 15                |
| Axborot-kognitiv     | Media nazariy bilimlari; tushunchalarni o'zlashtirish; qonuniyatlarni tushunish | 25                |
| Axborot-operatsional | Axborot izlash; tahlil; mahsulot yaratish; raqamli vositalardan foydalanish     | 25                |

| Mezon              | Indikatorlar                                                          | Maks. ball |
|--------------------|-----------------------------------------------------------------------|------------|
| Axborot-aksiologik | Axborot etikasi; mualliflik huquqi; mas'uliyat; xavfsizlik madaniyati | 20         |
| Axborot-refleksiv  | O'z faoliyatini baholash; takomillashtirish; kritik munosabat         | 15         |

Har bir mezon o'z indikatorlari bilan birgalikda mediakompetentlikning ma'lum jihatini o'lchaydi. Axborot-motivatsion mezon - talabaning media-faoliyatga ichki turtkilarini, axborot-kognitiv mezon - uning nazariy tayyorgarlik darajasini, axborot-operatsional mezon - amaliy ko'nikmalarini, axborot-aksiologik mezon - qadriyat yo'nalishlarini, axborot-refleksiv mezon esa o'z-o'zini baholash qobiliyatini o'lchaydi. Mezonlar o'rtasidagi vaznli koeffitsiyent talabaning yaxlit mediakompetentligini hisoblash uchun  $M = 0,15 \cdot B_1 + 0,25 \cdot B_2 + 0,25 \cdot B_3 + 0,20 \cdot B_4 + 0,15 \cdot B_5$  formulasi orqali ifodalanadi.

Axborotli yondashuv asosida mediakompetentlikning to'rtta darajasi belgilanadi: yuqori (kreativ) - 86-100 ball, talaba media-muhitda mustaqil va ijodiy faoliyat yuritadi; o'rta (samarali) - 71-85 ball, asosiy ko'nikmalar yaxshi shakllangan; asosiy (boshlang'ich) - 56-70 ball, eng zarur elementlar mavjud; past (yetarli emas) - 0-55 ball, komponentlar yetarli rivojlanmagan. Bu darajalar tizimi talabaning hozirgi pozitsiyasini aniq belgilash va keyingi pedagogik harakatlar yo'nalishini ko'rsatish imkonini beradi.

Mediakompetentlikni baholash uchun diagnostik usullarning yaxlit tizimi qo'llaniladi. Birinchi usul - testlash. 30 ta savoldan iborat standartlashgan test orqali talabaning nazariy bilimlari va kritik tafakkur darajasi o'lchanadi. Ikkinchi usul - anketa so'rovi. 20 ta savol Likert shkalasi (1-5 ball) bo'yicha tashkil etilib, motivatsion va aksiologik komponentlar o'rganiladi. Uchinchi usul - amaliy topshiriqlar. Talaba real media-mahsulot (videodars, infografika, podkast) yaratadi, bu uning operatsion komponentini baholashga xizmat qiladi.

To'rtinchi usul - media-vaziyatlarni tahlil qilish. Talabaga real media-vaziyat (yangiliklar matni, reklama, ijtimoiy tarmoq posti) taqdim etiladi va u quyidagi savollarga javob beradi: kim yaratgan? Qanday maqsadda? Qanday vositalardan foydalanilgan? Bu usul talabaning analitik qobiliyatlarini o'lchaydi. Beshinchi usul - refleksiv esse. Talaba o'z media-faoliyatini tahlil qiladi, qiyinchiliklarni va yutuqlarni belgilaydi. Bu refleksiv komponentni o'lchashga xizmat qiladi. Oltinchi usul - portfolio. Talaba semestr davomida o'zining barcha media-mahsulotlarini va refleksiv yozuvlarini portfoliyaga to'playdi, bu uning rivojlanish dinamikasini majmuyi kuzatish imkonini beradi.

Mediakompetentlikni baholash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat. Tayyorgarlik bosqichi (1-2 hafta): baholash maqsadlari aniqlanadi, vositalar tanlanadi, ekspertlar instruktaj qilinadi. Diagnostik bosqich (sentyabr-oktabr): kirish darajasi aniqlanib, individual rivojlanish trayektoriyasi shakllantiriladi. Joriy bosqich (semestr davomida): har 2 oyda oraliq baholash o'tkaziladi, dinamika kuzatiladi. Yakuniy bosqich (may-iyun): yakuniy darajalar aniqlanadi, statistik tahlil o'tkaziladi. Korreksion bosqich (yoz davri): natijalar asosida kelgusi o'quv yili uchun pedagogik strategiya takomillashtiriladi.

Olingan natijalarni statistik tahlil qilish baholash jarayonining muhim komponentidir. Bunda tavsifiy statistika (o'rtacha, standart og'ish, foiz taqsimoti) va inferensial statistika (Styudent t-mezoni, Pirsonning xi-kvadrat mezon, korrelyatsion tahlil) usullaridan foydalaniladi.

Eksperimental va nazorat guruhlarini taqqoslashda statistik mezonlar farqlarning ahamiyatini ( $p < 0,05$ ) tasdiqlaydi. Korrelyatsion tahlil esa mezonlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Axborotli yondashuv asosidagi baholash tizimining bir qator afzalliklari mavjud. Birinchidan, u majmuiy xususiyatga ega bo'lib, mediakompetentlikning barcha jihatlarini qamrab oladi. Ikkinchidan, u miqdoriy va sifatli ko'rsatkichlarni birlashtiradi, bu olingan natijalarning aniqligini va to'liqligini ta'minlaydi. Uchinchi, u individual va guruh natijalarini taqqoslash imkonini beradi. To'rtinchidan, u dinamik xususiyatga ega bo'lib, talabaning rivojlanishini vaqt davomida kuzatish imkonini beradi. Beshinchidan, u amaliyotga moslashgan bo'lib, real pedagogik faoliyatda osongina qo'llanilishi mumkin.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: birinchidan, axborotli yondashuv mediakompetentlikni baholashning samarali metodologik asosi bo'lib, u barcha komponentlarni majmuiy o'lchash imkonini beradi. Ikkinchidan, taklif etilgan beshta mezon (axborot-motivatsion, kognitiv, operatsional, aksiologik, reflektiv) va ularga mos indikatorlar tizimi mediakompetentlikning yaxlit tabiatini aks ettiradi. Uchinchi, diagnostik usullarning yaxlit tizimi (testlar, anketalar, amaliy topshiriqlar, media-tahlil, reflektiv esselar, portfolio) baholashning ob'ektivligini va to'liqligini ta'minlaydi. To'rtinchidan, baholash jarayonining bosqichli tashkili va statistik tahlil natijalarning ilmiy ishonchliligini kafolatlaydi. Bunday yondashuv pedagogika oliy ta'lim tizimida talabalar mediakompetentligini ob'ektiv baholash uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Fyodorov A.V. Razvitiye mediakompetentnosti i kriticheskogo mishleniya studentov pedagogicheskogo vuza. - M.: Inform. dlya vsekh, 2007. - 616 s.
2. Chelishyova I.V. Razvitiye mediakompetentnosti studentov pedagogicheskix vuzov: avtoref. dis. ... d-ra ped. nauk. - Rostov-na-Donu, 2014. - 50 s.
3. Grabar M.I., Krasnyanskaya K.A. Primeneniye matematicheskoy statistiki v pedagogicheskix issledovaniyax. - M.: Pedagogika, 1977. - 136 s.
4. Ferrés J., Piscitelli A. Media Competence: Articulated Proposal of Dimensions and Indicators // Comunicar. - 2012. - №38. - P. 75–82.
5. Potter W.J. Media Literacy. 9th ed. - Los Angeles: SAGE Publications, 2019. - 472 p.